




Turar joylar va obyektlar qurilishi, ko'chat ekish tadbirlari, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik hamda shahar bosh rejasi loyhalari bilan tanishildi




Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov bugun Termiz shahri, Angor va Jarqo'rg'on tumanlarida qurilish, ko'kalamzorlashtirish hamda kuz-qish mavsumiga ko'rilgan tayyorgarlik jarayonlari bilan tanishdi.













Jumladan:


- Termiz shahrida viloyat Bolalar kutubxonasi binosini rekonstruksiya qilish ishlari ko'zdan kechirildi. Mutasaddilarga ishlarni jadallashtirish va sifatli amalga oshirish, obyektni foydalanishga topshirish yuzasidan vazifalar topshirildi;
- Angor va Sherobod tumanlari hududida, M39 avtomobil yo'li yoqasida kuzgi daraxt ekish jarayonlari o'rganildi. Mutasaddilar tomonidan loyihaning joriy mavsumdagi ko'chat ekish ishlari haqida axborot berdi.













Shuningdek, Jarqo'rg'on tumanida:


- "Yangi O'zbekiston" massivida ko'p qavatli turar joylar va boshqa obyektlar qurilish jarayonlari o'rganildi;
- "Surxon-500" podstantsiyasidagi ta'mirlash ishlari va kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati ko'zdan kechirildi;
- Neftchilar mahallasida harbiy xizmatchilar uchun 120 xonadonli turar joylar qurilish-montaj ishlari jarayonlari bilan tanishildi.

Termiz shahridagi infratuzilma tadbirlari:

- "Hududiy elektr tarmoqlar" AJ viloyat filiali binosida tashkil etilgan kuz-qish mavsumi shtabi faoliyati o'rganildi;

- “Hududgaz Surxondaryo” gaz ta’minoti filialining zaxira omborxonasi va sohadagi tayyorgarlik ishlari ko’zdan kechirildi.








Tashrif davomida mutasaddilar viloyat rahbariga o'z yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va yangi loyihalar yuzasidan hisobot berib, yangi takliflarni taqdimot qildi.

Viloyat rahbari har bir yo'nalish va soha rahbariga ishlarni sifatli bajarish, kuz-qish mavsumida aholini energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash maqsadida barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasini topshirdi.


Shundan so'ng, kunning ikkinchi yarnida Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetida Termiz shahrining ishlab chiqilayotgan bosh rejasi va unga asosan hududlarda ko'p qavatli turar joylar loyiha takliflari taqdimoti bilan tanishdi.











Loyihalar qurilish sohasi mutasaddilari hamda quruvchi kompaniyalar vakillari tomonidan tanishtirilib, har bir loyihaning qiymati, situatsion rejasi hamda tanlangan hudud haqida axborot berildi. Viloyat rahbari bosh rejani ishlab chiqish ishlarini jadallashtirish, taklif etilayotgan loyihalaning texnik-iqtisodiy va hududiy yechimlari asoslarini ishlab chiqish topshirig'ini berdi. Shuningdek, universitet majlislar zalida bugun hududlarda o'tkazilgan o'rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklar, qurilish sohasidagi topshiriqlar ijrosi muhokama qilindi.











Shundan so'ng, viloyat hokimi boshchiligidagi sektor rahbarlari aholi murojaatlariga asosan Farovon massivida joylashgan ko'p qavatli turar joylardagi mavjud muammolarni o'rgandi. Fuqarolar tomonidan xonadonlari topshirilmayotganligi, olingan ayrim ko'p qavatli turar joylarning yerto'lasida suv yig'ilib qolganligi yuzasidan murojaat qilingan.

Viloyat rahbari aholi bilan muloqot qilib, turar joylar qurilishini amalga oshirgan qurilish kompaniyalari mutasaddilaridan har bir masalaga izoh so'radi. Aniqlangan kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish, topshirilmagan turar joylarning qurilishini yakunlab o'z egalariga topshirish, hududdagi BSK faoliyatini jonlantirish yuzasidan topshiriqlarni berdi.